
“CHINOR” PODSTANSIYASIDA JORIY TA’MIRLASH ISHLARI BAJARILADI
O‘ZBEKISTON TUMANINING BA’ZI HUDUDLARIDA QISQA MUDDATLI ELEKTR
ENERGIYASIDAN UZULISHLAR KUZATILADI

Joriy yilning 18-noyabr kuni O‘zbekiston tumanining “Yakkatut”, “Qudash”, “Sochtepa”, “Do‘ngsaroy”, “Dexqonobod”, “Beshkapa”, “Qoriyozbobo” hamda “Qudashobod” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini elektr energiyasi ta‘minlovchi 35/10 kVli “Chinor” podstantsiyasidagi elektr qurilmalarni hamda kuch transformatorida joriy ta‘mirlash ishlari bajarilishi sababli, mazkur hududlarga elektr energiyasini yetkazib berishda soat 08-00 dan 18-00 ga qadar qisqa muddatli uzilishlar kuzatiladi.

Podstansiyada ta‘mirlash ishlarini o‘z vaqtida xavfsiz olib borish uchun “Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tomonidan jarayonga kerakli malakali mutaxassislar hamda zarur maxsus transport vositalari jalb etiladi.

Ta‘mirlash vaqtida keltirilgan noqulayliklar uchun uzr so‘raymiz.

“Farg‘ona HETK” AJ matbuot xizmati

2022-11-17 22:35:42